

PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklar ekstraktidan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega, jigarrang tusdagi (biroz cho‘kma va xira ko‘rinish bo‘lishi mumkin), suyuq qiyom bo‘lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – me‘yorlash qoshig‘i – dozator, (3) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

	100 ml
Dorivor gulxayri ekstrakti (Glycyrrhíza glábra)	30 mg.
Tuya tikan ekstrakti (Caléndula officínalis)	20 mg.
Moychechak ekstrakti (Matricāria chamomílla)	20 mg.
Qizilmiya ekstrakti (Cúrcuma lóngá)	20 mg.

Yordamchi moddalar: 100 ml.gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spirit

PREPARATNING TA‘SIRI

- Balg‘am ko‘chiruvchi;
- Yalliglanishlarga qarshi;
- Nafas yo‘llari shilliq pardasiga ta‘sir ko‘rsatadi, balg‘amni kamaytiradi va yopishqoqligini susaytiradi.

QO‘LLANILISHI

Kashlinet preparati balg‘am qiyin ko‘chadigan, yo‘tal bilan kehadigan o‘tkir va surunkali yalliglanish kasalliklarida qo‘llaniladi:

- traxeitda;
- bronxitda;
- pnevmoniyada;
- bronxoektatik kasalliklarda;
- o‘pka emfizemasida (kattalarda va 1 yoshdan boshlab bolalarda. Bunday holatlarda Kashlinet balg‘am ko‘chishini yaxshilaydi va yengillashtiradi).

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning ba‘zi tarkibiy qismlariga yakka tarzdagi chidamsizlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Preparat peroral shaklda (og‘iz orqali) qo‘llaniladi. Qiyomni suv bilan aralashtirmaslik kerak. Davolanish muddati davolovchi shifokor tomonidan xar bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

6 oydan 1 yoshgacha bolalarga	2 yoshdan 6 yoshgacha bolalarga	7 yoshdan 12 yoshgacha bolalarga	Kattalarga va 12 yoshdan katta bolalarga
2,5 ml. (1/2 choy qoshiq)dan kuniga 3-4 mahal	5 ml. (1 choy qoshiq)dan kuniga 3 mahal	5 ml. (1 choy qoshiq)dan kuniga 4 mahal	10 ml. (2 choy qoshiq)dan kuniga 3-4 mahal

Preparatni qabul qilish ovqatlanishga bog'liq emas.
Davolanish davomiyligi odatda 3 kundan 7 kungacha.

MAXSUS KO'RSATMA

Preparatni qabul qilishdan oldin, chayqating.

NOJO'YA TA'SIRI

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga organizm ta'sirchanligi yuqori bo'lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatni me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2°S do +25°S haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz